

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 3

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 3

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabethta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ushenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Ashirboyev S., Aymag'ambet J., Sayfullayev B.

Muhammad Karimxojaning "Turkcha qoida" asarida fe'l formalarining izohlanishi.....6

Kuniyuki Noto

Boshlang'ich darajadagi grammatik qoliplarda yaponcha "iyi" va o'zbekcha "yaxshi" ning qo'llanilishi.....18

Ma'rufjon Dustmurodov

Qari Ćor Tigin bitigidagi yoyi: $t(a)b\gamma(a)\check{c} q(a)n\ yoyl(a)d\ddot{i}$ satri xususida30

Bobir Ashurov

Sud-ekspertiza lingvistikasida uslubiyat va uslublar.....44

Lee Ji-eun, Dilnoza Kalanova

O'zbek tilidagi harflarning koreys yozuvida ifodalanishi.....69

Adabiyotshunoslik

Alimuhtar Muhtarov

Nizami Gencevî ve onun "Mahzanü'l-esrâr" Mesnevisinin İncelenmesi, Konusu ve İdeasi.....81

Shoiraxon Xo'jayeva

Turkiy adiblar ijodida "dunyo" konsepti va uning ma'rifiy talqini95

Tarix. Manbashunoslik

Ziyovutdin Ilhomov

O'zbekistonda tarix fani: XX asr boshlarida jadidlar va ularning tarixiy-ilmiy qarashlari.....108

San'at

Элина Молдокулова

Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации121

CONTENT

Linguistics

Ashirboyev S., Aymag'ambet J., Sayfullayev B.

The Explanation of verb forms in Muhammad Karimhodja's
"Turkish Rule"6

Kuniyuki Noto

The use of Japanese "iyi" and Uzbek "yaxshi" in Beginner-Level
Grammar Patterns18

Ma'rufjon Dustmurodov

On the line "yoyi: *t(a)by(a)č q(a)n yoyl(a)di*" in the inscription
of "Qari Čor Tigin"30

Bobir Ashurov

Methodologies and Methods in Forensic Linguistics.....44

Lee Ji-eun, Dilnoza Kalanova

A Study of Uzbek Letters on the Korean Transcription System.....69

Literature

Almukhtar Mukhtarov

A Study of Nizami Ganjavi and his Methnewi 'Makhzan Al-asrar':
Analysis, Theme and Idea81

Shoirakhon Khujaeva

The Concept of "world" in the works of Turkic authors and its
Enlightenment Interpretation.....95

History. Source studies

Ziyovutdin Ilkhamov

The aspect of History in Uzbekistan: Jadids and their historical-
scientific perspectives in the early XXth century.....108

Art

Elina Moldokulova

Preserving Uzbek Cultural Identity Through Language and
Traditional Costume in the Globalization Era121

O'zbek tilidagi harflarning koreys yozuvida ifodalanishi*

Lee Ji-eun¹Kalanova Dilnoza²

Abstrakt

Mazkur tadqiqotda hozirgacha Koreya ommaviy axborot vositalarida muayyan mezonlarsiz talaffuz qilinib, yozib kelinayotgan o'zbek tiliga oid birliklar uchun koreys yozuvi asosidagi qiyosiy jadval ishlab chiqilib, yozuvni standartlashtirishga urinish amalga oshirildi. O'zbek tilidagi shaxs va geografik nomlarni yozishda ilgari asosan ingliz va rus tillari vositachilik qilganligi sababli yozuv shakllarida izchillik yetishmaydi, shuningdek, asl talaffuzga yetarlicha yaqin bo'lmagan holatlar tufayli talaffuzning buzilishi yoki yozuv bilan talaffuz o'rtasidagi muvofiqlikning sustligi tez-tez kuzatiladi. Shu sababli mazkur tadqiqot ishida asl talaffuzga sodiqlik tamoyiliga asoslanib, o'zbek tilidagi harflarning koreys yozuvi bilan qiyosiy jadvali ishlab chiqildi hamda ushbu yozuv qoidasi avvalo o'zbek tilidagi shaxs ismlari va geografik nomlarga tatbiq etildi.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan yozuv qoidasining asosiy mohiyati – asl til talaffuziga imkon qadar yaqinlikni saqlagan holda yozuvda muayyan qoidaviylikni ta'minlash va koreys tilida so'zlashuvchilar uchun uni nisbatan oson o'zlashtiriladigan holga keltirishdan iboratdir. Mazkur yozuv qoidasi hali dastlabki bosqichda bo'lishiga qaramay, u orqali ilgari yuzaga kelgan talaffuzdagi buzilishlar hamda yozuvdagi chalkashliklarni ma'lum darajada kamaytirish, shuningdek, o'zbek tilining asl talaffuziga yanada yaqin bo'lgan koreys yozuviga bir qadam yaqinlashish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so'zlar. *koreys yozuvi, yozuv qoidasi, o'zbek tilidagi harflar, shaxs ismlari, geografik nomlar.*

Kirish

Hozirgi kunda Koreyada o'zbek tili talaffuzi va yozuvini

*Ushbu tadqiqot 2025-yilgi Hankuk chet tillar universiteti ilmiy tadqiqot jamg'ar-masi tomonidan moliyalashtirilgan.

¹Lee Ji-eun – siyosatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Hanguk chet tillar universiteti professori.

E-mail: eurasia@hufs.ac.kr

ORCID: 0009-0006-4108-3895

²Kalanova Dilnoza – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Honam universiteti professori.

E-mail: dilnoza.temurovna@gmail.com

ORCID: 0009-0007-3696-1996

Iqtibos uchun: Lee Ji-eun, Kalanova, D. 2025. "O'zbek tilidagi harflarning koreys yozuvida ifodalanishi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 69 – 80.

standartlashtiruvchi yagona mezon mavjud emas. 2010-yildan so'ng O'zbekiston fuqarolarining Koreyaga kirib kelishi hamda mamlakatda istiqomat qilishi barqaror ravishda oshib bormoqda. 2022-yil holatiga ko'ra, ularning soni taxminan 80 ming nafarni tashkil etib, Koreyada yashayotgan chet ellik fuqarolar orasida miqdor jihatidan beshinchi o'rinni egallaydi. Shunday bo'lsa-da, Koreyada O'zbekistonning davlat tili rus tili, degan noto'g'ri tasavvurga ega bo'lgan holatlar uchrab turadi. Bu holat, eng avvalo, ommaviy axborot vositalarida mazkur mintaqa haqidagi ma'lumotlar asosan rus tili vositasida yetkazib kelingani bilan izohlanadi.

Koreyada rus tili mutaxassislari 1990-yillardan boshlab izchil tayyorlab kelinayotgan bo'lsa-da, o'zbek tili faqat 2010-yillarga kelibgina mahalliy oliy ta'lim muassasalarida o'quv fanlari tarkibiga kiritildi. Shuningdek, o'zbek tilini o'rganishga mo'ljallangan darslik va o'quv qo'llanmalar ham nisbatan yaqinda paydo bo'la boshladi. Shu tariqa, Koreyada uzoq vaqt davomida alohida e'tibor markazida bo'lmagan o'zbek tili 2018-yilda "Maxsus xorijiy tillar ta'limini rivojlantirish to'g'risidagi qonun" (qisqartma nomi – Maxsus xorijiy tillar ta'limi to'g'risidagi qonun) Milliy Assambleyada qabul qilingach, "maxsus xorijiy til" sifatida muayyan maqomga ega bo'ldi. Ushbu qonun asosida o'zbek tili bo'yicha keng jamoatchilikka mo'ljallangan ta'lim xizmatlari yo'lga qo'yilishi natijasida, qisqa vaqt ichida bo'lsa-da, o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan talab hamda unga nisbatan xabardorlik darajasi avvalgi holatga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, turli janrdagi ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston haqida ma'lumot berilish holatlari ko'paydi va mamlakatga oid shaxs ismlari hamda geografik nomlarning koreys yozuvida ifodalanishi tez-tez uchray boshladi. Biroq hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarida uchrayotgan o'zbek tilidagi shaxs ismlari va joy nomlarining koreys yozuvidagi ifodasi aniq va izchil qoidalarga asoslanmagan. Hozirga qadar biror marta ham tizimli muhokama olib borilmaganligi buning asosiy sababidir.

Koreyada o'zbek tili bo'yicha standartlashtirilgan yozuv qoidalari mavjud bo'lmaganligi sababli foydalanuvchiga qarab turlicha ko'rinishda namoyon bo'lib kelmoqda. Masalan, "오즈벡 (o'zbek)" shakli asl talaffuzga eng yaqin koreyscha yozuv ifodasi bo'lishiga qaramay, hozirgi kungacha "우즈베크어(uzbek tili)" yoki "우즈벡어" kabi shakllar qo'llanilmoqda. Bu holat "inglizcha o'zbek tili" shaklini bevosita asos qilib olgan yozuv uslubi bilan bog'liq. Shuningdek, o'zbek tilidagi shaxs ismlarining koreys tilidagi ifodasi

ko'pincha ruscha transkripsiya orqali bevosita o'zlashtirilgan. Ayrim hollarda esa transkripsiya shakllari ruscha transliteratsiya qoidalariga tayanadi. Shu bois aniq va izchil yozuv qoidasini shakllantirish maqsadida xorijiy so'zlarni yozishning umumiy tamoyillariga asoslangan holda, o'zbek tili fonemalarini koreys yozuvida ifodalash bo'yicha ilmiy muhokama olib borish zarurati mavjud. Shu sababli mazkur tadqiqot hozirgacha Koreya ommaviy axborot vositalarida muayyan mezonlarsiz talaffuz qilinib, yozib kelinayotgan o'zbek tilidagi shaxs ismlari va geografik nomlarni asl tildagi talaffuzga imkon qadar yaqin hamda koreys tilida so'zlashuvchilar uchun nisbatan oson qabul qilinadigan shakllarda standartlashtirishni maqsad qiladi. Tadqiqot jarayoni avvalo o'zbek tilining fonetik va orfografik xususiyatlarini yoritishdan boshlanadi, so'ngra asl talaffuzga sodiqlik (original tovushni saqlash) tamoyiliga asoslangan holda koreys alifbosi bilan qiyosiy jadval taqdim etiladi. Yakunda esa mazkur jadvalni o'zbek tilidagi shaxs ismlari va geografik nomlarni koreys yozuvida ifodalanishiga oid ayrim amaliy misollar keltiriladi.

Asosiy qism

O'zbekiston hukumati 1993-yilda kirill yozuvidan voz kechib, lotin yozuviga o'tishni rasman e'lon qilgan bo'lib, hozirgi kunda o'zbek tilining rasmiy yozuv tizimi lotin alifbosiga asoslanadi. 2018-yilda o'zbek tilshunoslari o'zbek tili lotin alifbosi yozuvini qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlab, undagi uchta undosh va bitta unli harfning yozuvda ifodalanishini o'zgartirish taklifi bilan chiqdilar. Biroq mazkur taklif hali hukumat tomonidan rasmiy tasdiqlanmaganligi sababli amaliyotda hanuzgacha 1993-yilda qabul qilingan lotin alifbosi qo'llanib kelinmoqda. Mazkur tadqiqotga ham o'zbek tilining 1993-yilda belgilangan lotin yozuvi me'yorlari asos qilib olindi.

1-jadval. Kirill va lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilidagi harflarning koreys yozuvida ifodalanishi.

Lotin alifbosi	Kirill alifbosi	Asosiy fonetik qiymat		Lotin alifbosi	Kirill alifbosi	Asosiy fonetik qiymat	
		Xalqaro fonetik alifbo (IPA)	Koreys alifbosidagi ifodasi			Xalqaro fonetik alifbo (IPA)	Koreys alifbosidagi ifodasi
A, a	А а	a, æ	[^o]/[_o]	T, t	Т т	t	[테]
B, b	Б б	b	[배]	U, u	У у	u	[우]

D, d	Д д	ɗ	[데]	V, v	В в	v, w	[뷔]
E, e	Е е	e	[에]	X, x	Х х	χ	[헤]
F, f	Ф ф	ϕ	[페]	Y, y	Й й	j	[예]
G, g	Г г	g'	[게]	Z, z	З з	z	[제]
H, h	Х х	h	[헤]	O', o'	Ў ў	o	[오]
I, i	И и	i	[이]/[으]	G', g'	Г г	γ	[게]
J, j	Ж ж	dʒ	[제]	Sh, sh	Ш ш	ʃ	[쉐]
K, k	К к	k'	[케]	Ch, ch	Ч ч	tʃ	[체]
L, l	Л л	l	[레]	Ng, ng	н г	ŋ	[응]
M, m	М м	m	[메]	'	ь	tutuq belgisi (apostrof)	*
N, n	Н н	n	[네]				
O, o	О о	o	[어] ([오]와 [아] 사이 발음)				
P, p	П п	p	[페]				
Q, q	Қ қ	q	[케]				
R, r	Р р	r	[레]				
S, s	С с	s	[세]				

Manba: Kim Byong-il. 2006. O'zbek tili, Hanbando Xalqaro Oliy Ta'lim Universiteti nashriyoti.

Hozirgi kunda Koreyada o'zbek tili uchun mo'ljallangan koreys yozuvi qoidalari mavjud emas. Shu sababli mazkur tadqiqotda "asl til talaffuziga imkon qadar yaqin holda yozish" asosiy tamoyil sifatida qabul qilinib, o'zbek tilidagi harflarning koreys alifbosi bilan qiyosiy jadvali quyidagi mezonlar asosida taqdim etildi. "Asl talaffuzga sodiqlik (fonetik yozuv)" tamoyiliga asoslangan holda, "Xorijiy so'zlarni yozish qoidalari" (Koreya Madaniyat, sport va turizm vazirligi xabarnomasi, 2017-yil 14-son)ning asosiy tamoyillariga muvofiq, o'zbek tilidagi harflarning koreys yozuvida ifodalanishi bo'yicha qoidalar quyidagilardir:

Odatda so'z oxiridagi undosh koreys tilida 받침 (patchim) vazifasida kelganda, ㄱ(k), ㄴ(n), ㄹ(r), ㅁ(m), ㅂ(p), ㅅ(s), ㅇ (ng) harflaridan biri qo'llaniladi. Biroq quyidagi holatlarda istisno

tariqasida unli bilan birikkan shaklda yoziladi:

- so'z oxiridagi -t, -d → /ㅌ/
- so'z oxiridagi -g → /ㄱ/
- so'z oxiridagi -k, -q → /ㅋ/
- so'z oxiridagi -l → /ㄹ/ , /ㄹㄹ/
- so'z oxiridagi -b, -p → /ㅍ/
- so'z oxiridagi -n → /ㄴ/ , /ㄴㄴ/
- so'z oxiridagi -m → /ㅁ/ , /ㅁㅁ/
- so'z oxiridagi -h, -x → /ㅎ/

Biroq quyidagi holatlar alohida istisno sifatida belgilanadi:

- so'z oxiridagi -j → /ㅈ/
- so'z oxiridagi -nt, -nd → /ㄴㅌ/
- so'z oxiridagi -r → /ㄹ/
- so'z oxiridagi -v, -f → /ㅍ/
- so'z oxiridagi -s → /ㅅ/ , -z → /ㅈ/
- so'z oxiridagi -ts → /ㅌㅅ/

Bir xil undoshlarning takrorlanishi holati, xususan, bb, dd bo'lgan hollarda birinchi undosh oldingi bo'g'inning oxirgi undoshi (받침)sifatida yoziladi. Masalan: murabbo/무랍버/, muddat/뭇닷/. dd, ff, kk, jj, hh, rr, ss, vv, yy, zz undoshlari esa qo'shaloq bo'lmagan holatlardagidek yoziladi. Masalan: muvaffaqiyat /무바파키얏/, tashakkur /타샤큐르/, hujjat /후쟈/, karra /카라/, mutaxassis/무타하시스/, quvvat/쿠뵵/, lazzat/라쟈/.

-sh birikmasi. -sh alohida kelganda har biri /쉬/ tarzida yoziladi. Agar undan keyin a, o', o, u unililari kelsa, bir bo'g'in tarzida birlashtirib yoziladi. Agar i unlisi kelsa, bir bo'g'inga birlashtirilmaydi va /쉬이/ tarzida yoziladi. -e bilan qo'shilganda she /쉐/ tarzida yoziladi. Misollar: -shu /슈/, -sho /셔/, -sha /샤/, -sho' /쇼/, va -shi /쉬이/.

-ch birikmasi. -ch alohida kelganda /취/ tarzida yoziladi. Agar undan keyin a, o', o, u unililari kelsa, bir bo'g'in tarzida birlashtirib yoziladi. Agar i unlisi kelsa, bir bo'g'inga birlashtirilmaydi va /취이/ tarzida yoziladi. -che birikmasi /취/ tarzida yoziladi. Misollar: -chu /츄/, -cho /쳐/, -cha /차/, -cho' /초/, va -chi /취이/.

A unlisi -ng bilan qo'shilganda a unlisi -ng bilan qo'shilganda /양/emas, balki /앵/ tarzida yoziladi. Masalan: charchamang /차르차맹/, bormang/버르맹/.

Rus tilidan kirib kelgan so'zlarda a unlisi oldidan /ㄱ/ sifatida yoziladi. Masalan: sumka/숨까/.

Yarim unli y dan keyin a, e, i, o', o, u unililari kelsa, kelayotgan unliga qarab: ya (야), ye (예), yi (이이), yo (여), yo' (요), yu (유)

tarzida yoziladi. Misollar: yayov/야옙/, yemoq/예먹/, yulduz/올두즈/, Osiyo/어시여/, yo'l/올/, yurt/유르트/.

Agar y unli tovushdan keyin kelsa, /이/ tarzida yoziladi. Masalan: Navoiy/나보이이/, chiroyli/치러일리/.

I unlisi asl talaffuzda joylashuviga qarab /이/yoki /으/ tarzida talaffuz qilinishi mumkin, ammo aniq qoidani qo'llash qiyin bo'lganligi sababli hammasi /이/ tarzida yoziladi.

Quyidagi tamoyillarga asoslanib, ushbu tadqiqot ishida o'zbek tilidagi harflarning koreys alifbosi bilan qiyosiy jadvali keltirildi.

2-jadval. O'zbek tilidagi harflarning koreys alifbosi bilan qiyosiy jadvali.

	O'zbek tilidagi harflar	Koreys alifbosi	Undosh oldida	Izoh
		Unli oldida	So'z oxirida	
Undosh	B b	ㅂ	ㅃ	Abdul 압둘 Bobur 버부르
	D d	ㄷ	ㄸ	Samarqand 싸마르칸트 Muhammad 무함맛 Murodjon 무럿전
	F f	ㅍ	ㅑ	Furqat 푸르캣 Farg'ona 파르거나
	G g	ㄱ	ㄲ	Jahongir 자헌기르 pedagog* 페다고그
	H h	ㅎ	흐	hafta 하프타 Shohruh 쇼흐루흐
	J j	ㅈ	ㅉ	Jamshid 잠쉬이드 kollej 컬레쥬
	K k	ㅋ	ㄱ	Komilov 커밀러프 Shavkat 샤브캣 Malik 말릭 sumka** 썸까
	L l	ㄹ	ㄹㄹ, ㄹ	Odil 어딜 Malik 말릭
	M m	ㅁ	ㅁㅁ, ㅁ	Mehribon 메흐리번 Marg'ilon 마르길런 Abdurahmon 압두라흐먼 Muhammad 무함마드
	N n	ㄴ	ㄴㄴ ㄴ	Namangan 나만간
	P p	ㅍ	ㅍ ㅑ	Oripov 어리퍼프 chappa 찻빠
Q q	ㅋ	ㄱ	Qo'chqorov 코취커러프 qishloq 크실럭	

	R r	르	르	Ravshan 략산 Amirbek 아미르벡 bo'r 보르
	S s	ㅅ	스	Samarqand 사마르칸트 dars 다르스
	T t	ㅌ	ㅌ 트	Termiz 테르미즈 Toshkent 터쉬켄트(타슈켄트, 타시켄트: 관용적) Shavkat 샹캣
	V v	ㅂ	브 프	Navoiy 나비이이 Shavkat 샹캣 Karimov 카리머프
	X x	ㅎ	ㅎ	Shuxrat 슈흐랏 Xo'jayev 호자예프 Shoh 쇼흐
	Y y	야 예 요 유	이이	Navoiy 나비이이 Yahyo 야흐여 Mirziyoyev 미르지요예프 Yunusobod 유누서버드
	Z z	ㅈ	ㅈ ㅈ ㅈ	Aziz 아지즈 Zafar 자파르
	G' g'	ㄱ	ㄱ	G'ofur 거푸르 Ulug'bek 울룩베크 tog' 툃
	Sh	ㅅ	쉬	Alisher 알리셰르 Toshkent 터쉬켄트 Shodmonov 셔드머너프 Zarafshon 자라프션 Oqtosh 억터쉬
	Ch	ㅊ	ㅊ 취	Achchiq-chuchiq 앗츝-츄츄크 Chimyon 침연 Chorsu 처르수 Chorvoq 처르벅 Choch 처취
	Ng ng	-	응	so'ng 송 o'ng 응
Unli	A a	아 / 야 애		Alisher 알리셰르 Hamza 합자 aka 아카 bormang 버르맹
	E e	에		Erkin 에르킨 Ermanov 에르마노프
	I i	이		Iskandar 이스칸다르 Sirdaryo 시르다리여 bo'ri 보리
	O o	어		Farg'ona 파르거나 G'ulom 굴럼
	U u	우		Buxoro 부허러 Temur 테무르 Abdulla 압둘라
	O' o'	오		O'ktam 옥탐 To'ra 토라

*O'zbek tilida -g bilan tugaydigan so'zlar kam uchraydi. pedagog, dialog, reyting kabi Yevropa yoki rus tilidan kirib kelgan o'zlashma so'zlar bo'lsa, koreyschada /그/ deb yoziladi.

**Rus tilidan olingan soʻzlarda a unlisi oldidan ㅏ bilan yoziladi (masalan: sumka/숨까/).

3-jadval. Oʻzbek tilidagi shaxs ismlarini koreys yozuvida ifodalash.

성(姓)	
남성 -v [-프]	여성 -va [-바]
Olimov [얼리머프]	Olimova [얼리모바]
Muhammedov [무함메더프]	Rixsiyeva [리흐씨예바]
이름	
Anvar [안바르] Gulchehra [굴체흐라] Shirin [쉬이른] Hilola [힐랄라] Alisher [알리셰르]	
부성(父性)	
남성	여성
Rustamovich [루스타머비치]	Rustamovna [루스타머브나]
Rustam oʻgʻli [루스탐 오글르]	Rustam qizi [루스탐 키지]

Maʼlumki, bugungi kunda Oʻzbekistonda shaxsning toʻliq ismi uch qismdan – familiya, ism hamda otasining ismidan iborat. Masalan, Olimov Anvar Rustamovich yoki Olimov Anvar Rustam oʻgʻli. Bu shakllarning koreys yozuvidagi ifodasini yuqoridagi jadvalda koʻrish mumkin. Oʻzbek tilida togʻ, daryo, togʻ tizmasi kabi geografik obyektlarga oid joy nomlari tarkibida koʻpincha ushbu obyekt turini bildiruvchi leksik birliklar mavjud boʻladi. Bunday nomlar ikki xil shaklda uchraydi: birinchisi – joy nomi va togʻ, daryo, choʻl kabi soʻzlar qoʻshilib, boʻshliqsiz bitta soʻz sifatida yozilgan holatlar; ikkinchisi esa joy nomi alohida, obyekt nomi (togʻ, daryo, choʻl) esa alohida yoziladigan shakllardir. Birinchi holatda koreys tiliga tarjima jarayonida joy nomiga qoʻshimcha ravishda togʻ, daryo yoki choʻl maʼnosini bildiruvchi soʻzlarni qoʻshib yozish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi holatda esa asl joy nomi saqlangan holda unga mos ravishda togʻ yoki daryo soʻzi qoʻshiladi. Bunga oid misollar quyidagi jadvalda keltirilgan.

4-jadval. Oʻzbek tilidagi geografik nomlarni koreys yozuvida ifodalash.

Geografik nomlar	Ajratib yozilmaydi (togʻ, daryo, togʻ tizmasi maʼnosidagi soʻzlar bitta soʻz sifatida yoziladi)	Ajratib yoziladi
산 togʻ[턱]		Pomir Oloy togʻi 퍼미르 얼러이 산 Amirsoy togʻi 아미르씨이 산 Zomin togʻi 저민 산

강 daryo[다르여]	Amudaryo 아무다르 여 강 Sirdaryo 쓰르다르 여 강	Angren daryosi 안그렌 강 Chotqol daryosi 첫컬 강
사막 qum[쿰]	Qizilqum 크즐쿰 사막 Qoraqum 커라쿰 사막	
호수 ko'[콜]		Aydar ko'li 아이다르 호수

Koreya manzillaridagi “~gil”, “~ro” tushunchalariga mos keluvchi birlik o'zbek tilida ko'cha(코차) deb ataladi, uy raqami yoki bino nomiga mos keluvchi birlik esa uy(우이) bilan ifodalanadi. Amaliyotda viloyat nomlari ko'pincha faqat viloyat nomining o'zi bilan yoziladi; shahar, tuman, ko'cha va uy raqami kabi boshqa birliklar esa tegishli nomlari bilan birga qo'llanadi. Quyida manzil yozilishiga oid misol orqali ushbu tizim yoritib beriladi.

100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi 25 -> 터쉬켄트 샤흐르, 샤흐르사브즈 코차시 25.

150100, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy -> 파르거나 빌러얏, 파르거나 샤흐르, 무랍비일라르 코차시, 19-우이.

Geografik nomlar odatda taxminan besh bo'g'indan iborat bo'ladi, biroq rus tilidan o'zlashgan joy nomlarida bo'g'inlar soni bundan ham ko'proq bo'lishi mumkin.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda hozirgacha Koreya ommaviy axborot vositalarida muayyan mezonlarsiz talaffuz qilinib, yozib kelina-yotgan o'zbek tiliga oid birliklar uchun koreys yozuvi asosidagi qiyosiy jadval ishlab chiqilib, yozuvni standartlashtirishga urinish amalga oshirildi. O'zbek tilidagi shaxs yoki joy nomlarini yozishda ilgari asosan ingliz va rus tillari vositachilik qilganligi sababli yozuv shakllarida izchillik yetishmaydi, shuningdek, asl talaffuzga yetarlicha yaqin bo'lmagan holatlar tufayli talaffuzning buzilishi yoki yozuv bilan talaffuz o'rtasidagi muvofiqlikning sustligi tez-tez kuzatiladi. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot ishida asl talaffuzga sodiqlik tamoyiliga asoslanib, o'zbek tilidagi harflarning koreys alifbosi bilan qiyosiy jadvali ishlab chiqildi hamda ushbu yozuv qoidasi avvalo o'zbek tilidagi shaxs ismlari va geografik nomlarga tatbiq etildi.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan yozuv qoidasining asosiy mohiyati – asl til talaffuziga imkon qadar yaqinlikni saqlagan holda yozuvda muayyan qoidaviylikni ta'minlash va koreys tilida

so'zlashuvchilar uchun uni nisbatan oson o'zlashtiriladigan holga keltirishdan iboratdir. Mazkur yozuv qoidasi hali dastlabki bosqichda bo'lishiga qaramay, u orqali ilgari yuzaga kelgan talaffuzdagi buzilishlar hamda yozuvdagi chalkashliklarni ma'lum darajada kamaytirish, shuningdek, o'zbek tilining asl talaffuziga yanada yaqin bo'lgan koreys yozuviga bir qadam yaqinlashish imkoniyatini yaratadi.

Kelgusida o'zbek va koreys tillarini mukammal biladigan mutaxassislar guruhi tomonidan ushbu yozuv qoidasi bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish, shuningdek, tadqiqot doirasini boshqa sohalarga ham kengaytirish zarur. Albatta, mazkur tadqiqot Koreya-da ushbu yo'nalishdagi dastlabki urinish bo'lganligi sababli unda ayrim cheklovlar va kamchiliklar mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Shuningdek, keltirilgan yozuv qoidasi qamrab olmagan ko'plab istisno holatlar ham aniqlanishi mumkin bo'lib, bular kelgusidagi tadqiqotlar jarayonida bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishi rejalashtirilgan. Ushbu tadqiqot keyingi izlanishlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Akbarov, D. 2017. *Yanada to'g'ri o'zbek tili*. Seul: ECK Books.
- Koreya Madaniyat, sport va turizm vazirligi xabarnomasi. 2017. *Xorijiy so'zlarni yozish qoidalari*, 2017-yil 14-son.
- Koreya Respublikasi Adliya vazirligining mamlakatga kirib-chiqish bo'yicha statistik ma'lumoti: [https://www.moj.go.kr/moj/2412/subview.do\(2023-08-29\)](https://www.moj.go.kr/moj/2412/subview.do(2023-08-29)).
- Mashrabbekova, Aziza, Lee Ji-eun. 2019. *O'zbek tili standart darслиgi A1*. Seul: Hankuk chet tillari universiteti.
- Milliy qonunchilik axborot markazining "*Maxsus xorijiy tillar ta'limini rivojlantirish to'g'risidagi qonun*".
- Otamirzayeva S., Yusupova M. 2024. *O'zbek tili*, Toshkent.
- Rixsiyeva Gulchehra. 2016. *O'zbek tili*. Toshkent: Sharqshunoslik
- 곽새라. (2020). 이란의 인명 한글표기에 대한 고찰. *중동연구*, 38(3), 39-60.
- 곽순례, 김보영, & 김연주. (2021). 한국어 고유명의 아랍어 표기 사례 연구. *중동연구*, 20(2), 237-280.
- 고태진, 이동원. (2023). 힌디어 외래어 표기법 시안 개발 연구. *남아시아연구*, 29(3), 1-29.
- 박한상. (2023). 현재의 외래어 표기법에 대한 비판과 대안. 2023 한국외대 언어연구소 상반기 학술대회 자료집, 문자의 표상: 우리말과 외래어 표기, 25-68.
- 이하얀. (2017). 국어 외래어 표기법의 문제점과 보완 방향. *언어와 정보 사회*, 30, 189-205.
- 임동훈. (1996). 외래어 표기법의 원리와 실제. *새국어생활*, 6(4), 41-62.
- 정희원. (2023). 외국어 표기 정책의 현황과 전망. 2023 한국외대 언어연구소 상반기 학술대회 자료집, 문자의 표상: 우리말과 외래어 표기, 9-22.

A Study of Uzbek Letters on the Korean Transcription System*

Lee Ji-eun¹
Kalanova Dilnoza²

Abstract

This study aims to standardize the transcription of Uzbek linguistic units that have so far been pronounced and written in Korean mass media without clear criteria by developing a comparative chart of Uzbek letters and Korean scripts. As English and Russian have previously functioned as intermediary languages in the transcription of Uzbek personal and geographical names, considerable inconsistencies in written forms have emerged. Moreover, because many existing renderings fail to adequately reflect the original pronunciation, distortions in pronunciation and a lack of correspondence between spelling and pronunciation have frequently occurred.

On the basis of fidelity to the original pronunciation, a comparative chart between Uzbek letters and the Korean script is proposed and the transcription system is applied to Uzbek personal and geographical names. The primary objective of this system is to ensure a certain degree of orthographic regularity while maintaining maximum proximity to the pronunciation of the source language and facilitating its use by Korean speakers. Although the proposed transcription system remains at a preliminary stage, it has the potential to reduce previously existing distortions in pronunciation and confusion in spelling. Furthermore, it represents a step toward the establishment of a Korean-based orthographic system that more accurately reflects the original pronunciation of the Uzbek language.

Key words. *Korean transcription, transcription system, Uzbek letters, personal names, geographical names*

*This work was supported by Hankuk University of Foreign Studies Research Fund (Of 2025).

¹ Lee, Ji-eun – Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science, Hankuk University of Foreign Studies, Professor.

E-mail: eurasia@hufs.ac.kr

ORCID: 0009-0006-4108-3895

² Kalanova Dilnoza – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Honam University, Assistant Professor.

E-mail: dilnoza.temurovna@gmail.com

ORCID: 0009-0007-3696-1996

For citation: Lee, Ji-eun, Kalanova, D. 2025. "A Study of Uzbek Letters on the Korean Transcription System". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 69 – 80.

Literature

- Akbarov D. 2017. *Yanada to'g'ri o'zbek tili*. Seul: ECK Books.
- Koreya Madaniyat, sport va turizm vazirligi xabarnomasi. 2017. *Xorijiy so'zlarni yozish qoidalari, 2017-yil 14-son*.
- Koreya Respublikasi Adliya vazirligining mamlakatga kirib-chiqish bo'yicha statistik ma'lumoti: [https://www.moj.go.kr/moj/2412/subview.do\(2023-08-29\)](https://www.moj.go.kr/moj/2412/subview.do(2023-08-29)).
- Mashrabbekova Aziza, Lee Ji-eun. 2019. *O'zbek tili standart darsligi A1*. Seul: Hankuk chet tillari universiteti.
- Milliy qonunchilik axborot markazining "Maxsus xorijiy tillar ta'limini rivojlantirish to'g'risidagi qonun".
- Otamirzayeva S., Yusupova M. 2024. *O'zbek tili*, Toshkent.
- Rixsiyeva Gulchehra. 2016. *O'zbek tili*. Toshkent: Sharqshunoslik
- Gwak, Saera. 2020. "A Study on the Hangul Transcription of Iranian Personal Names." *Journal of Middle East Studies* 38 (3): 39 – 60.
- Gwak, Sunrye, Boyoung Kim, and Yeonju Kim. 2021. "A Case Study on the Arabic Transcription of Korean Proper Names." *Journal of Middle East Studies* 20 (2): 237 – 280.
- Ko, Taejin, and Dongwon Lee. 2023. "A Study on Developing a Draft System for the Transcription of Hindi Loanwords." *South Asian Studies* 29 (3): 1 – 29.
- Park, Hansang. 2023. "Criticism of the Current Loanword Transcription System and Proposed Alternatives." In *Proceedings of the First Half of the 2023 Academic Conference of the HUFs Language Research Institute: Script Representation – Korean Language and Loanword Transcription*, 25 – 68.
- Lee, Hayan. 2017. "Problems of the Korean Loanword Transcription System and Directions for Improvement." *Language and Information Society* 30: 189 – 205.
- Im, Donghoon. 1996. "Principles and Practice of the Loanword Transcription System." *New Korean Language Life* 6 (4): 41 – 62.
- Jeong, Heewon. 2023. "The Current Status and Prospects of Foreign Language Transcription Policy." In *Proceedings of the First Half of the 2023 Academic Conference of the HUFs Language Research Institute: Script Representation – Korean Language and Loanword Transcription*, 9 – 22.